

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14059430>

**Maxmudova Nargiz DJumaniyazovna**

*Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasini mudiri., pfn., dotsent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda uzluksiz ta'limning tutgan o'rnini, milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar haqida so'z yurutamiz.

**Kalit so'zlar.** Kompetensiya, kasbiy kompeteniyasi, mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, boshlang'ich ta'lim, bilim va ko'nikma.

## ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ

**Махмудова Наргиз Джуманиязовна**

*заведующая кафедрой «Педагогика, психологии и образовательных технологий» Хорезмского областного центра педагогической экспертизы, доцент*

**Аннотации.** В статье автор раскрывает требования к современному педагогу. Раскрыто значение понятия компетентности. Определено значение компетенции учителя в процессе повышения развития и воспитания учащихся. Подробно описана взаимосвязь педагогической квалификации и педагогической компетенции. Приведена классификация профессиональной компетенции учителя.

**Ключевые слова и понятия:** компетенция, профессиональная компетенция, педагогические умения, инициатива, сотрудничество, инновация, коммуникативность

## INCREASING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SCHOOL TEACHERS

**Makhmudova Nargiz Jumaniyazovna**

*head of the department of "Pedagogy, psychology and educational technologies" of the Khorezm Regional Center for Pedagogical Expertise, associate professor*

**Annotation.** The article describes the need for the formation of an innovative culture among teachers, the problems of innovative activities of teachers, axiological, innovative-technological, cooperative-activity, communicative and personal-creative components of the innovative culture of teachers. Key words: innovation, innovative activity, innovative

*culture, axiological component, innovative technological component, cooperative activity component, communicative component, personal and creative component.*

O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, yangi texnologiyalar bilan boyitish, mazkur jarayonda o'qituvchining o'rnini, uning pedagogik faoliyatini chuqur o'rganish masalalari pedagogika nazariyasi oldida turgan muhim vazifalardandir. Zamonaviy ta'lim nazariyasi ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasida erishgan yutuqlarini mujassamlashtirgan bo'lib, ular o'zining maqsad, vazifalari, mazmuni, milliy xususiyatlari hamda sifat ko'rsatkichlari bilan bir-biridan farqlanadi. Respublikamizda ta'lim mazmunini istiqbolga yo'naltirish, modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonini tashkil etish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Uzluksiz ta'lim tizimi doirasida faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasalari demokratik hamda insonparvar g'oyalarga tayangan, shuningdek, yangicha mazmunga ega bo'lgan ta'lim jarayonini tashkil etish muhim o'rinni egallaydi. Uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish, shuningdek, ta'lim mazmunini yangilash ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh g'oyasi sanaladi. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari sirasiga qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimiga tizimli va tizimli-faoliyatli yondashuvni tatbiq etish lozim. Mazkur yondashuv muayyan vaqt mobaynida turli mamlakatlarning ta'lim tizimida o'zini oqlab kelmoqda.

Uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida quyidagilarda namoyon bo'la boshladi:

- o'quv jarayonidagi tajribaviy-amaliy yo'nalish kengaydi;
- kasbiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan bilimlar integratsiyasi, fanlararo bilish doirasi, fanlararo aloqadorlik va tafakkur kuchaydi;
- uzluksiz kasbiy ta'lim dasturlarining insonparvarlikka asoslangan mazmuni dolzarblashtirildi;
- o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash darajalari tabaqalashtirildi;
- uzluksiz kasbiy ta'lim yo'nalishi sifatida umumta'lim maktablari tarkibida ta'lim jarayonining mustahkam modelini ta'minlovchi uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tarkib toptirilishi lozim.

Ta'lim taraqqiyotining barcha bosqichlarida innovatsiyalarning kirib kelishi boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlash omillaridan biri bo'lib, yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va tatbiq etish talab etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini uzluksiz takomillashtirish ehtiyojga aylanmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi faqat malaka oshirish jarayonining o'zidagina emas, balki mustaqil, masofali, hamkorlikda, metodist va mahorat maktablarida jalb etish orqali maqsadli amalga oshirish lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalaridan xabardorlik hamda elektron kutubxonalardan unumli foydalanish, ilg'or o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, kabilar muhim ahamiyatga ega. Jahon ta'lim amaliyotida ham o'qituvchining quyidagi

muhim kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilgan: - turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidantashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar; - ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish); - mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyushtirish kshnikmalarini baholash va takomillashtirish); - maishiy sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi); - madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan shasning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish). Jamiyat taraqqiyoti tendensiyasiga tayangan holda qadriyatlar, maqsadlar hamda ta'limning rivojlanish qonuniyatlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish tizimiga qo'yilgan talablar, innovatsion yangilanishlar sharoitida uyg'unlashish va globallashtirish, ta'limni boshqarishda ko'proq umummadaniy tamoyillarga murojaat qilinishi lozim, bunda: pedagog kadrlar malakasini oshirishda uzviylik yoki tadrijiylik tamoyili; ma'naviyatlilik tamoyili, madaniyatli anglash tamoyili, inson va ta'limning qadriyat ekanligi, ta'lim berish faoliyati; o'quv jarayonini boshqarishga tizimli qadriyatli yondashish tamoyili; ilmiy yondashuvlarni muayyan tamoyillarga tayangan holda ilgari surish; o'zaro aloqalarni hisobga olish tamoyili, rivojlanishda muntazamlik va nomuntazamlikning o'zaro birgalikdagi harakatini hisobga olish tamoyili; inson faoliyatining barcha turlarida konseptual bilimlarning tizimli-ilmiy mohiyati ortishi tamoyili; modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishda oldinni ko'ra bilish va bashorat qilishning etakchiligi tamoyili kabilar.

Xulosa qilib aytganda, mana shu tamoyillarga tayanish natijasida o'quv jarayonini boshqarishning ilmiyligini ta'minlash hamda hamkorlik va birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uzluksiz malaka oshirish jarayonini shakllantiradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining zamonaviy talablar asosida faoliyat olib borishiga va boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Афанасьева Е.Д., Борисова Л.Г. Инновационная культура педагогов [Электронный ресурс] // Электронный журнал «Имидж». - Режим доступа: [http://image.websib.ru/05/text\\_article.htm7237](http://image.websib.ru/05/text_article.htm7237).

2. Торгунская Н.Л. Личностное знание как механизм развития педагогических инноваций [Электронный ресурс] / Электронный журнал «Знание. Понимание. Умение» -2008.-№1(2). -Режим доступа: [http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/1\(2\)/Torgunskaja/](http://www.zpu-journal.ru/e-zpu/1(2)/Torgunskaja/).

3. Исаев И.Ф. Теоретические основы формирования профессиональной педагогической культуры преподавателей высшей школы: Автореф. дис... . докт.пед.наук. -М., 1993.-33с.

4. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учеб. Пособие для студентов пед. Учебных заведений / Подред .В.А.Слостенина .-М : Академия, 2002. - 576с.

5. Никандров Н.Д. Формирование личности учителя в системе высшего профессионального образования. -М : Владос, 2003. -420с.